

XO'RAKI KO'K NO'XAT NAV VA NA'MUNALARIDAN ENG YAXSHI BOSHLANG'ICH MATERIALNI SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA TANLASH

¹G'aybullayev G'. S., ²Hazratqulov M., ³Abdurashidova M.F.

Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filali

¹q/x.f.d., ²doktorant (PhD), ³magistr

Abstract. The increase in the number of the population causes the emergence of even more needs. This causes an increase in demand for legumes, especially green peas. In this article, the results of the research conducted to select the best starting materials from the variety samples of green peas in the conditions of Samarkand region are highlighted.

Key words: blue pea, variety, sample, starting material, growth period, resistance to diseases, ascochyosis.

Резюме. Увеличение численности населения вызывает появление еще большего количества потребностей. Это вызывает увеличение спроса на бобовые, особенно на зеленый горошек. В данной статье освещены результаты исследований, проведенных по отбору лучших исходных материалов из сортообразцов зеленого горошка в условиях Самаркандской области.

Ключевые слова: горошек голубой, сорт, образец, исходный материал, вегетационный период, устойчивость к болезням, аскохитоз.

Kirish. Respublikamizda ko'k no'xatning hosildorligi yuqori navlarini yaratishga yetarlicha e'tibor berilmagan. Respublika aholisini oqsiliga bo'lgan ehtiyojni qondirishda albatta hosildorligi yuqori navlarni tanlab olishimiz dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Samarqand viloyati sharoitida xo'raki ko'k no'xatning nav va na'munalari ustida bir nechta tadqiqotlar o'tkazdik. Tadqiqot ishlari Jomboy tumanida joylashgan "Farboma selekt" urug'chilik ilmiy fermer xo'jaligida olib borildi

Tadqiqot qo'yishimizdan maqsad Samarqand viloyati sharoitida ko'k no'xatning oziq-ovqat sanoati uchun yuqori va sifatli hosildorlikka ega bo'lgan namunalarni tanlash hisoblanadi. Tadqiqotning vazifalari: Xo'raki ko'k no'xat navlarining jahon kolleksiyasi nav namunalariidan qimmatli xo'jalik-biologik xususiyatlarga ega nav namunalariidan seleksiya uchun dastlabki ashyo sifatida foydalanish;

Tadqiqotning obyekti: O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti, Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti, Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot

instituti, Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutidan olib kelingan 18 ta kolleksiya nav namunasi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ilk marotaba Samarqand viloyati sharoitida xo'raki ko'k no'xatning hosildor nav va namunalarni taqqoslab o'rganish, ular orasidan maqsadga muvofiqlarini tanlab olish.

O'suv davri davomiyligi. Ko'k no'xatning o'suv davri davomiyligi nav yoki na'munalarning o'stirish sharoitiga bog'liq holda 70-140 kungacha bo'ladi. Ko'karganda urug'pallalarini tuproq yuzasiga olib chiqmaydi. Uzidan changlanadi. Uzun kun o'simligi. Sovuqqa chidamli. Maysalari 4-5 °C da o'saveradi va -4 °C sovuqqa bardosh beradi. Harorat 26 °C dan ohsa hosilni shakllanishi sustlashadi. Pishib etilishi uchun faol harorat yig'indisi 1200-1600 °C . Urug'lari unib chiqishi uchun o'z vazniga nisbatan 100-120% suvni yutadi. Transpiratsiya koeffitsienti 700-900. Neytral tuproqlarda yaxshi o'sadi.

Ko'k no'xat namunalarining o'suv davri davomiyligi (2021 yil) (1-jadval)

№	Nav va namunalar nomi	To'liq unib chiqish muddati	To'liq dukkakash muddati	Xo'jalik pishish muddati	Unib chiqish dukkakash (kun)	Unib chiqish - xo'jalik pishish (kun)
1	Osiyo 2001(st)	27.03	14.05	18.05	48	52
2	Uzbekiston 2011	27.03	08.05	12.05	42	46
3	Vostok 55	26.03	09.05	12.05	44	47
4	Vostok 84	26.03	08.05	11.06	43	46
5	1904x3545	26.03	07.05	10.05	42	45
6	1904x2956	26.03	07.05	11.05	42	46
7	Bio 520x346	26.03	07.05	09.06	42	44
8	Proteek x IGC 96344	27.03	08.05	11.05	42	45
9	Proteek x IGC 23654	26.03	05.05	07.05	40	42
10	Rotanx 1236	26.03	09.05	13.05	44	46
11	Proteek x IGC 23578	26.03	11.05	13.05	46	48
12	Rotanx 2125	26.03	13.05	15.05	48	50

13	L(385x2329)xIG C2011-81	26.03	09.05	13.05	45	49
14	Proteek x 135486	26.03	11.05	14.05	46	49
15	Proteek x 288	26.03	10.05	13.05	45	48
16	Proteek x IGC 135482	26.03	09.05	12.05	44	47
17	L(385x2329)xIG C 2011-61	26.03	08.05	12.05	43	47

Ertapisharlik bo'yicha tanlab olingan nav va namunalar (2021yil) (2-jadval)

T.p	Nav va namunalar nomi	To'liq unib chiqish muddati	Xo'jalik pishish muddati	To'liq unib chiqish xo'jalik pishish (kun)
1	Osiyo 2001(st)	27.03	18.05	52
2	Uzbekiston 2011	27.03	12.05	46
3	Vostok 55	26.03	12.05	47
4	Vostok 84	26.03	11.06	46
5	1904x3545	26.03	10.05	45
6	1904x2956	26.03	11.05	46
7	Bio 520x346	26.03	09.06	44
8	Proteek x IGC 96344	27.03	11.05	45
9	Proteek x IGC 23654	26.03	07.06	42
10	Rotanx 1236	26.03	13.05	46
11	Proteek x IGC 23578	26.03	13.05	48
12	Rotanx 2125	26.03	15.05	50
13	L(385x2329)xIGC2011-81	26.03	13.05	49
14	Proteek x 135486	26.03	14.05	49
15	Proteek x 288	26.03	13.05	48

16	Proteek x IGC 135482	26.03	12.05	47
17	Proteek x IGC 235783	26.03	14.05	50
18	Knnv15	26.03	10.05	46
19	Proteek x IGC 235780	26.03	10.05	46
20	Proteek x IGC 235789	26.03	12.05	47
21	L385xIGC2011-61	26.03	15.05	50
22	BIO 520x273	26.03	11.05	47
23	Rotanx 170	27.03	15.05	49
24	L(85x23)xIGC2011-61	26.03	11.05	48
25	Proteek x IG 140034	26.03	14.05	49
26	Proteek x IG135481	26.03	11.05	48
27	Bio (520xBio)x273	26.03	10.05	46
28	L(385x2329)xIGC 2011	26.03	09.05	44
29	1904x1916	26.03	11.05	46
30	L(85x2329)xIGC 2011-61	26.03	12.05	49
31	L(385x2329)xIGC 2011-61	26.03	12.05	47

Kasalliklarga chidamligi. Xo'raki ko'k no'xat hosiliga asosan zang, ildiz bakteriozi, fuzarioz so'lish kasalligi, askoxitoz, antraknoz, yolg'on un shudring, chirish kasalliklari, yasmiq donxo'ri, loviya donxo'ri, uzun tumshuq qo'ng'izlar, shira, 5 nuqtali uzun tumshuq qo'ng'iz va boshqa xasharotlar ko'proq zarar yetkazadi. Ularning kasalliklariga qarshi kurashda asosan almashlab ekish tizimiga, urug'larni ekish muddatlari va qatqaloqqa qarshi kurash, kasallik va zararkunandalarga chidamli navlardan foydalanish, kaliyli o'g'itlardan unumli foydalanishga, begona o'tlarga qarshi kurash va azotli o'g'itlarni yuqori miqdorlarda berilmasligiga e'tibor qaratish lozim. Yashil no'xatning zararkunandalariga qarshi kurashda esa urug'larni ekishdan oldin dorilash, biologik kurash choralari amalga oshirish, dala atrofidagi begona o't va hasharotlar qishlaydigan joylarni tozalash va o'sish davrida profilaktika choralari amalga oshirishga qaratish lozim.

Ко'к no'xatning Askoxitoz kasalliklarga chidamliligi bo'yicha tanlab olingan nav va namunalар (2021 yil)(3-jadval)

T.r	Nav va namunalар nomi	Askox itoz	T.r	Nav va namunalар nomi	Askoxit oz
1	Osiyo 2001(st)	9	9	Proteek x IGC 23654	7
2	Uzbekiston 2011	9	10	Rotanx 1236	7
3	Vostok 55	9	11	Proteek x IGC 23578	7
4	Vostok 84	9	12	Rotanx 2125	7
5	1904x3545	9	13	Jobbuleh	5
6	1904x2956	9	14	Proteek x 135486	7
7	Bio 520x346	7	15	Proteek x 288	7
8	Proteek x IGC 96344	9	16	Jasur-98	9

Tajriba natijalariga ko'ra 2021 yilda ko'k noxat kolleksiyalari organish Askoxitoz kasallikgiga bardoshli ekanligi kuzatildi va ularning zararlanish darajasi 5-20 % bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi tadqiqot ishida biz 18 tadan ortiq kolleksiya nav namunalarning qimmatli belgi xususiyatlarini, tezpisharlik hamda kasalliklarga chidamliligi bo'yicha kuzatishlar olib bordik. Natijada ertapisharligi bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkichga ega nav va namunalар tanlab olindi. Masalan ertapisharligi bo'yicha Proteek x IGC 23654 va L(385x2329)xIGC 2011 namunalari Samarqand viloyati sharoitida eng yaxshi ko'rsatkichga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek ko'k no'xat nav va na'munalарining kasalliklarga chidamliligi dala sharoitida baholanganda yaxshi natija qayd etildi. Jumladan Askoxitoz kasalligiga bardoshli ekanligi kuzatildi va ularning zararlanish darajasi 5-20 % ni ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.O. Oripov, N.X. Xalilov, O'simlikshunoslik. Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2007.
2. D.T. Abdurkarimov, "Qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chilgi" Toshkent-2005.
3. X.N. Atabayeva, J.B. Xudoyqulov, O'simlikshunoslik. Darslik. Toshkent 2018. Fan va texnologiya. 408 bet.